

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ  
ВАЗИРЛИГИ

ҚАРШИ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

**ИЛМ-ФАН ВА ИННОВАЦИЯ**

Илмий-амалий конференция  
материаллари

Қарши  
“Қарши давлат университети” нашриёти  
2019

24	Рахмодрев Д. Бурдулаева Ш.	Шахсин ингилезчада ривожлан- тирши – ижтимоий-педагогик муаммо сифатида	73
25	Sobitova N. Z G'ijfotova T.	Volatilning devalyatsiyaga muvilligini tashxislash usullari	76
26	O'xtorova M.	O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida komliklarning kechib o'tishi sabablari	79
27	Xo'jayitova N.	Shaqr pmlalakkilari asatigiada fazandilarga oia-ola pimosablatilning uotitishi	81
28	Etkinov M. Ismoilov N.	Sportchi teipregetatitilning faolliyat natijasiga ta'siri	83
29	Devlidova D. Mavlonov X.	XVI asr xarobii soxasii tarqimida Buxoro xonligii misolida	86
30	Jamolov D.	Boia tarbiyasida oigla va jamoiatni urini	89
31	Muslimova M.B.	«ЧД ПЗМД» – perviyi traktat o chae	94
32	Eurmanova Z.N.	Janubiiy U'zbekiston shaxarila- ri urta asrilar misolida	97
33	Saidov F.	Marxazii Osiy mintaqasida tinchlik va xavfsizlikni ta'minla- mashla U'zbekiston respublika- sinii urini va roli	101
34	Samatova F., Eshingilidova G.	Ta'lim jadalotii tashkii etishi va vosilalarning zamotadotitilini osilishi	105
35	Koizkov F., Murtinova T.	Mustaqillik yilpirlida U'zbekistonning xorijkii mamlatkilar bilan sotilikki sakisii soxasida xamkorilini	106
36	Ravobolova Sh. Meyrliev V.	Plitii mamda so'z talitii	109
37	Jo'rayeva M., Motilova S.	Abdulla Qodiriy she'riada mlial qayit usi	112

38	Makmalilidova N. Vahidilova B. Sultonova H.	O'zbek tishinosligida birikma va piga doir dolzarb masalalar	114
39	Orniyeva S. Jabborov S.	Isajon Sultonning romannavistlik mahorati	117
40	Raxmatova Z. X.	Koilar bahshi dostonlarida kutilangan onomastik birliklarining strukturasii	121
41	Koziyeva D.	Maktabgacha etiladi bolalar nutqini ustirishning lingvistik asoslari	125
42	Ruzikva D.	Adabiyotshunos olimning adabiy jod yo'li	128
43	Sultonova H.	Ikibol Mirzo ijkoilida metafora	130
44	Shoyibova X. Ismoilova G.	Chingiz Aytmatovning "T'otlar kula'ttan zamon (adabiiy kalitk) romaniidani boii goi	133
45	Nasirova G. Yuldesheva N.	"T'enetik" romani badiiyati Pshlavlarida polisonu	137
46	Sho'iriyeva N.	vosilalarning o'tii	141
47	Shodiyeva S.	Nazir Esiorqii joidida galiz	145
48	Berdiyeva M. X.	Korik Rahmatullo Vozex xatitii va ilimii merosi	148
49	Ismoilova M.	Nutqini rivojlanitirishda tigning ahamiati	153
50	Kharulova D. A. Shukitova Z. SH	Nutqini rivojlanitirishda vocabulary	156
51	Toriseva Zebo Shukurova Z. SH.	Chingiz Aytmatovning "T'otlar kula'ttan zamon (adabiiy kalitk) romaniidani boii goi	158
52	Shukurova Z. SH.	Sifat su'z gurumiga oyd sustantivlarning xolisvasii	160

**“O‘zbek tili va adabiyoti  
yo‘nalishi”ning 2- kurs magistranti  
Maxmadmurodova Nodira**

**O‘zbek tilshunosligida birikma va unga doir dolzarb masalalar**

Bugungi kunda olimlarimiz tomonidan o‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalariga oid bir qator ilmiy ishlar qilib kelinmoqda. Xususan, birikma mavzusi bo‘yicha ham tilshunoslar o‘z fikrlariga ega. Tilshunos Shavkat Rahmatullayev o‘zining “ Hozirgi adabiy o‘zbek tili” nomli kitobida ushbu mavzu bo‘yicha mulohaza yuritib, birikmalar tizimining mazmun-mohiyatini keng doirada yoritib bergan. Mazkur kitobda birikmaga quyidagicha ta‘rif beriladi: “Leksemashaklning odatda leksemaga tobelanishi bilan tuziladigan lisoniy birlikka birikma deyiladi”. Olim birikmaga tizim sifatida qaraydi va birikmani quyidagi 7 ta turga ajratadi: sifatlovchili birikma, qaratuvchili birikma, izohlovchili birikma, izofa birikma, ta‘kidlovchili birikma, to‘ldiruvchili birikma, hollovchili birikma. Uning har bir turini misollar bilan izohlab ko‘rsatadi. Ko‘rishimiz mumkinki, tilshunos Sh.Rahmatullayev birikma mavzusini keng doirada o‘rganib, tasniflagan. Ma‘lumki, o‘zbek tilshunosligida birikma tor va keng ma‘nolarda qo‘llanilganligi sababli o‘quv darsliklarida bu mavzu bo‘yicha turlicha yondashilganini ko‘ramiz. Bu esa hali bir to‘xtamga kelinmagan masalalar mavjud ekanligini ko‘rsatadi. Jumladan, maktablardagi o‘quv darsliklarda birikma mavzusining tor doirada yoritilganligi mavzuni o‘quvchilarga tushuntirish mobaynida bir qator muammoli savollarni yuzaga keltiradi. Shuningdek, o‘zbek tilshunosligida shaklan o‘xshash qurilmalarning mavjudligini bilamiz. So‘z birikmasi va iboralar o‘rtasida keskin farq sezilib tursa-da, lekin ularga keltirilgan misollar orasida o‘xshash qurilmalilari ham uchraydi, bu esa o‘quvchini fikrlashga undaydi. Masalan, *sodda dil, yengil tabiat, mayda gap, ochiq qo‘l, anqoning urug‘i, daqqiyunusdan qolgan, avzoyi buzuq, bag‘ri tosh, bag‘ri qon, pixini yorgan* kabi turg‘un birikmalar so‘z birikmasi qolipi shaklida tursa-da, ma‘nosi jihatidan, turg‘un holda ekanligidan farq qiladi, omonim iboralar ham mavjud bo‘lib, ular ham so‘z birikmasi, ham ibora bo‘lib

kela oladi. Masalan, *katta o'g'iz, ammamning buzog'i, supra qoqdi* kabilar. Biz ularni gap tarkibida farqlay olamiz. Shuningdek, fors tilidagi ba'zi so'z birikmalari bizning tilshunosligimizda ibora ma'nosida qo'llaniladi, masalan, *duoyi xayr* birikmasi – birovlariga yaxshiliklar tilab qilingan duo; *duoyi jon* - kimsaga umr va yaxshilik tilab qilingan duo va doim sizning duoyi joningizdamiz, degan ma'noni ifodalab, nutqimizda ibora sifatida qo'llanadi. Ammo shunday birikmalar ham mavjudki, ular ham qo'shma fe'l, ham ibora, ham so'z birikmasi qolipiga to'g'ridan-to'g'ri tusha oladi (*bir qarorga kelmoq, o'rnidan turmoq, ishga kirmoq, maqsadiga yetmoq, voyaga yetmoq, xayoliga kelmoq, umidsizlikka g'arq bo'lmoq, chapak chalmoq* kabi). Bu esa tilshunoslarning har biri o'z mulohazasiga ko'ra fikr bildirishiga olib keladi va fanda yakdil bir qaror qabul qilishga to'sqinlik qiladi.

Nemis tilshunosi Y.Ris so'z birikmalari xususida mulohaza yuritganida ularni so'zga nisbatan mutlaqo boshqa maqomda ekanligini, ammo ba'zi jihatlariga ko'ra qo'shma so'zlarga yaqin turishini qayd etgan. Haqiqatdan ham, ushbu birikmalarning qoliplari o'rtasida o'xshashliklar mavjud bo'lganligi sababli fanda bir qator chalkashliklarni yuzaga keltirmoqda. Shu sababdan ham ba'zi misollar bugungi kungacha mavjud darslik va qo'llanmalarda o'z tasnifini topmasdan ilmiy muammolardan biriga aylandi. Tilshunosligimizdagi qo'shma so'z va so'z birikmasi, so'z birikmasi va izohlovchili birikma, qo'shma ot va izohlovchili birikma, so'z birikmasi va turg'un birikma, ya'ni ibora, so'z birikmasi va tasviriy ifoda o'rtasidagi chegarani aniqlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib kelmoqda. Ba'zi birikmalarning o'z tasnifini topa olmasligiga sabab esa yuqoridagi ilmiy tushunchalarga berilgan qoidalarning mukammal emasligi, qoliplarida bir qator kamchiliklarning borligidir. Kamchiliklar esa qoidalarning ba'zi o'rinlarida xatoliklarga yo'l qo'yilganligida (masalan, bitishuvli, boshqaruvli so'z birikmalari qoidalarida), qoliplarning tuzilmasida ba'zi o'rinlar qolib ketganligida (masalan, qo'shma fe'l qolipida) ko'rinadi. Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun tilshunoslikning har to'rttala, ya'ni qiyosiy-tarixiy, an'anaviy-formal, sistem-struktur, assotsiativ yo'nalishlarning manbalaridan foydalangan holda ish

yuritish lozim. O'xshash qurilmalarning keskin farqli jihatlarini aniqlash, ular o'rtasidagi chegaralarni aniqlash va ularga keltirilgan misollarni mos holda joylashtirish esa bizning vazifamiz hisoblanadi.

**Adabiyotlar:**

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili (darslik) – T.: Universitet, 2006. 248-bet.

2. Bahriddinova B. Qo'shma fe'llarni o'qitish muammolari // "Til va adabiyot ta'limi" jurnali. 2016, 10-son